ISSN: 2450-8160

# Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka

wydanie specjalne



Warszawa
2021

# Editorial Team

**Editor-in-chief:** *Gontarenko N.*

**EDITORIAL COLLEGE:**

**W. Okulicz-Kozaryn**, *dr. hab, MBA, Institute of Law, Administration and Economics of Pedagogical University of Cracow, Poland;*

**L. Nechaeva,** *PhD, PNPU Institute K.D. Ushinskogo, Ukraine.*

**K. Fedorova,** *PhD in Political Science, International political scientist, Ukraine.*

## ARCHIVING

*Sciendo archives the contents of this journal in* ***ejournals.id*** *- digital long-term preservation service of scholarly books, journals and collections.*

## PLAGIARISM POLICY

*The editorial board is participating in a growing community of* ***Similarity Check System's*** *users in order to ensure that the content published is original and trustworthy. Similarity Check is a medium that allows for comprehensive manuscripts screening, aimed to eliminate plagiarism and provide a high standard and quality peer-review process.*

## About the Journal

Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka (HP) publishes outstanding educational research from a wide range of conceptual, theoretical, and empirical traditions. Diverse perspectives, critiques, and theories related to pedagogy – broadly conceptualized as intentional and political teaching and learning across many spaces, disciplines, and discourses – are welcome, from authors seeking a critical, international audience for their work. All manuscripts of sufficient complexity and rigor will be given full review. In particular, HP seeks to publish scholarship that is critical of oppressive systems and the ways in which traditional and/or "commonsensical" pedagogical practices function to reproduce oppressive conditions and outcomes.Scholarship focused on macro, micro and meso level educational phenomena are welcome. JoP encourages authors to analyse and create alternative spaces within which such phenomena impact on and influence pedagogical practice in many different ways, from classrooms to forms of public pedagogy, and the myriad spaces in between. Manuscripts should be written for a broad, diverse, international audience of either researchers and/or practitioners. Accepted manuscripts will be available free to the public through HPs open-access policies, as well as we planed to index our journal in Elsevier's Scopus indexing service, ERIC, and others.

HP publishes two issues per year, including Themed Issues. To propose a Special Themed Issue, please contact the Lead Editor Dr. Gontarenko N **(info@ejournals.id)**. All submissions deemed of sufficient quality by the Executive Editors are reviewed using a double-blind peer-review process. Scholars interested in serving as reviewers are encouraged to contact the Executive Editors with a list of areas in which they are qualified to review manuscripts.

# SARS-COV-2 INFEKSIYASIDA PROFILAKTIK CHORA TADBIRLARNING AHAMIYATI

**Melsova Muxlisa Murodjon qizi**
Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti
Melsovamuxlisa3114@gmail.com

*Anotatsiya. Xozirgi kunda insoniyatga misli ko'rilmagan global "kurash" e'lon qilingan bo'lib, bizning dushmanimiz esa-yangi aniqlangan koronavirus infeksiyasi hisoblanadi. "Jang maydoni" bo'lib bizning shifoxonalarimiz hisoblansa, "askarlarimiz"- bu bizning tibbiyot hodimlarimizdir. 2019-yil oxirlaridan boshlab Xitoy xalq respublikasining Uxan shahri (Xubey provinsiyasi)da koronavirus infeksiyaning tarqalishi bo'yicha epidmarkaz bo'ldi, qo'zg'atuvchiga vaqtinchalik 2019-nCoV nomi berildi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti 2020-yil 11-fevraldan e'tiboran bu qo'zg'atuvchiga COVID-19 "Coronavirus disease 2019" nomi hamda Davlatlararo komitet viruslar toksonomiyasi bo'yicha yangi virusga rasmiy SARS-CoV-2 nomi berildi. 2020-yil 11-martdan boshlab Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti pandemiyaning boshlanganligini e'lon qildi. Xozirda dunyo bo'ylab COVID-19 bilan zararlanish 2 mlndan oshmoqda.*

*Kalit so'zlari. SARS-CoV-2, COVID-19, koronavirus, pnevmoniya, yashirin davr, shaxsiy gigiyena, profilaktika.*

Koronavirus bir zanjirli ribonuklein kislota saqlovchi Coronaviridae oilasiga mansub bo'lib, toifasiga ko'ra Beta-CoV, virus II guruh patogenligiga ega bo'lib, odam va bir necha jonzotlarni zararlash hususiyatiga ega. 2002-yillar oxiridan Odamlarda koronavirus infeksiyasi yuqori nafas organlarini zararlab yengil formadan to og'ir o'tkir respirator sindromini keltirib chiqaradi. Serologik va filogenetik taxlil natijalariga ko'ra koronaviruslarni 4 toifaga bo'linadi: Alpha - , Beta -, Gamma - va Delta - coronavirus. Virusning kirish darvozasi bo'lib-yuqori nafas yo'lining epiteliysi hamda oshqozon va ichaklarning epiteliositlaridir. SARS-CoV-2 ning boshlang'ich bosqichi bo'lib, ???-2 retseptorlarini saqlovchi nishon hujayralardir. Ushbu retseptorlarni saqlovchi hujayralar markaziy nerv sistemasi, nafas yo'llari, qizilo'ngach, buyraklar, siydik qopida joylashgan. Asosiy va tez rivojlanuvchi nishon hujayralari bo'lib o'pkaning II tipli (AT2) alveolar hujayralari bo'lib pnevmoniyani keltirib chiqaradi. Virusning yashirin davri 2-14 kunni tashkil qiladi. Virusning tashqi muxitda saqlanib qolishi (tashqi muxit omiliga bog'liq holda harorat va namlikga qarab o'zgarishi mumkin): keramika idishda-5 kun, havoda-3 soat, mis idishda-4 soat, aluminiy idishida-2-8 soatgacha, tibbiy qo'lqoplarda-8 soatgacha, kartonlarda-24 soat, plastiklarda-2-3 kun, shisha idishlarda- 4 kun. Yog'ochda-4 kun. Yuqish yo'llari havo-tomchi (zararlangan insonning aksa urishi, yo'talishi, oraliq masofa 2 m dan kam bo'lganda), kontakt (zararlangan inson bilan qo'l berib salomlashish yoki virus kontaminatsiyalangan yuza bilan muloqot qilish), fekal-oral mexanizm.

COVID-19 klinik belgilari: 3-4% odamlarda ikki tomonlama o'tkir respirator distress sindromi, holsizlik-44%, tana haroratining oshishi(38 va undan yuqori 0C) - 90% dan

Universal Impact Factor SSRN ELSEVIER

ortiq, quruq yoki kam miqdordagi balg'am-80%, ko'krak qafasida og'irlik hissi - 20%, zararlanishning 6-8-kunlarida nafas siqishi -55% bemorlarda kuzatiladi. COVID-19 profilaktikasi spetsifik va nospetsifik turlarga bo'linadi:

Spetsifik yuqish yo'llari ishlab chiqilmoqda. Nospetsifik turiga infeksiyaning tarqalishini cheklashga qaratilgan chora tadbirlar kiradi. Ular quyidagilardir : 1.Infeksiya manbai (kasal odam, infeksiyaning yashirin davridagi odam)

2. Infeksiya yuqish mexanizmiga qaratilgan profilaktika

3. Moyil organizmlarga qaratilgan chora tadbirlar (bemorlar bilan muloqotda bo'lgan odamlar).

Infeksiya manbaiga qaratilgan chora tadbirlar: bemorlarni izolatsiya qilish, bemorlarning tibbiy niqoblarini har 2 soatda almashtirib turish, bemorlarni maxsus transportlarda transportirovkalash, bemorlarning yo'tal gigiyenasiga rioya qilishi, bemorlarga tibbiy jihozni ishlatishda bir bemordan ikkinchisiga qo'llashdan oldin dezinfeksiyalash kabilar kiradi.

Infeksiyaning yuqish mexanizmiga qaratilgan chora tadbirlar quyidagilardan iborat: qo'l gigiyenasi, tibbiy niqob taqish bunda xirurgik tibbiy niqob yoki ?95 va himoya ko'zoynagi (burun va og'iz, ko'zlar himoyasi), tibbiy hodimlarning maxsus kiyimlari (xirurgik tibbiy niqob, himoya ko'zoynagi, shaffov yuz niqobi, tibbiy qo'lqoplar, baxilla, xalat), dezinfeksion ishlarni olib borish(tibbiyot hodimi kasallikni yuqtirib olishi mumkin bo'lgan jihozlar), B sinfga kiruvchi chiqindilarni utilizatsiyasi hamda havoni zararsizlantirish ishlari.

Qo'llarni yuvish tartibi:

1. Jo'mraklarni ochib qo'llarni namlash

2. Suvni yopib sovun yordamida kamida 20 soniya yaxshilab yuvish (orqa kaftlar, barmoqlar orasi, bosh barmoqni ishqalab yuvish, tirnoqlar osti, barmoq uchlari, bilaklar) yuviladi

3. Oqar suvda sovun ko'piklari ketkizilib, qo'llarni toza sochiqda yoki bir martalik salfetkalarda artiladi

4. Jo'mraklarni yopishda bir martalik salfetkalar yordamida yopish yoki dezinfeksion eritma bilan artib tashlash lozim.

Tibbiy niqoblarni ishlatish tartibi. Tibbiy niqoblarning turlari quyidagicha: respiratorli, xirurgik va oddiy bir martalik tibbiy niqoblar. Tibbiy niqoblarni har 2-3 soat davomida almashtirish. Tibbiy niqoblarni ishlatilib bo'lingach tashqi tomoniga tegib ketishdan saqlangan holda elastik yuzadan ushlab uni yopiladigan konteynerga tashlash. Tibbiy niqoblarga tegib ketilganda yoki konteynerga tashlangan so'ng tarkibida spirt saqlovchi dezinfeksion eritma yoki qo'llarni sovunlab yuvishni unutmaslik kerak.

Bemorlar bilan muloqotda bo'lgan odamlar. COVID-19 tasdiqlangan bemor bilan muloqotda bo'lgan barcha shaxslar maxsus izolatsiya xonalariga izolatsiya qilinishi zarur.

Muloqotda bo'lgan odamlarni maxsus o'qitilgan hodimlar bilan maxsus transport vositasida transportirovka qilish lozim. Agar izolatsiya uchun maxsus joy bo'lmasa o'z-o'zini izolatsiya qilishga ko'rsatma berilishi kerak. O'z-o'zini izolatsiya qilish imkoniyatlarini malakali tibbiy yordam hodimi baxolashi kerak, Shuningdek u aloqada bo'lgan shaxslarga izolatsiya shartlari to'g'risida ko'rsatma berilishi kerak. O'z-o'zini izolatsiya qilish paytida

Universal Impact Factor SSRN ELSEVIER

oziq-ovqat yoki boshqa maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan shaxslar joylardagi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ta'minlanishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1.t.me/koronavirusinfouz
2.Handbook of Covid-19 Prevention and Treatment
3.www.tma.uz
4.Kun.uz
5.www.who.int
6.http://coronavirus.uz/
7.https://www.who.int/ru/emergencies/diseases/novel-coronavirus-2019

Universal Impact Factor SSRN ELSEVIER